



FORTEPIANO MUSIQA CHOLG'USINING KELIB CHIQISH TARIXI

Mauzerova Hilola

Termiz Davlat Pedagogika instituti Jismoniy madaniyat va san'at fakulteti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Fortepiano cholg'u asbobining tarixi hamda takomillashuv jarayoni haqida fikr yuritilgan. Fortepiano cholg'u asbobining tarixan rivojlanish bosqichidagi ijodkorlar haqida to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: fortepiano, tembr, xarrak, usul, maun, klavikord, klaviatura, idrok

Abstract: This article discusses the history and development of the piano instrument. The authors of the historical stage of development of the piano instrument are discussed.

Keywords: piano, timbre, harrak, method, mahogany, clavichord, keyboard, perception

Fortepiano cholg'u asbobining tarixi juda qadim zomonlarda ya'ni, qadimgi

Yunonistonda borib taqaladi. Ko'paytirish nazariyasining asoschisi Pefagor yashagan davrda monoxord deb nomlanuvchi cholg'u asbobi mavjud bo'lgan. Bu cholg'u asbobi ustida tor tortilgan uzun ingichka qutidan iborat edi. Bu quti maxsus daraxt yog'ochidan yasalgani uchun undan chiqadigan tovush baland va o'z tembr xususiyatiga ega bo'lgan. Tor qutichaga siljitilmaydigan xarrak bilan qotirilgan, undan tashqari yana bir harakatlanuvchi xarrak bo'lib, u torda harakatlantirib, musiqiy tovushni pasaytirish yoki balandlatish uchun xizmat qilgan. Vaqt o'tgan sari bitta tor yoniga boshqa torlar qo'shib borilgan.

Bu cholg'u asbobdan maxsus maun (mediator) bilan ba'zida esa torlarga maxsus tayoqcha bolg'acha bilan urib ijro etilgan. Asrlar o'tib, bu cholg'u asbobi takomillashib bordi. Quti kattalashib, to'g'ri burchakli holatga keladi.

Tor tomonga klaviatura joylashtiriladi. Endi cholg'uchi klavishni bosib chaladigan bo'ldi, unga moslangan metall plastinkalar torlarni tiragan holda tovush hosil qilgan. Bu cholg'u asbobi klavikord deb atala boshlagan.

Uni stol ustiga qo'yib, turgan holda ijro etilgan. Klavikord cholg'u asbobi XII asrda paydo bo'lib, besh asr davomida bir yancha davlatlarda yashaydigan ustalar uni takomillashtirishga harakat qilishgan. Musiqatovushlari kuchli, qattiq chiqishi uchun har bir klavishga bir necha tor qo'shilgan va qutining hajmi kattalashgan.

Vaqt o'tishi bilan klavikordda bir necha klaviatura joylashtirilgan, har bir klaviatura cholg'u asbobi ovoz diapazonini kengaytirishga hamda kuchaytirishga xizmat qilgan. Bu harakatlar ham cholg'u asbobi ovozini kuchaytirishga xizmat qila olmadi. Klavikord qimmatbaho yog'ochdan, bezakli qilib yasalgani uchun boybadavlat kishilarning mehmonxonalarini ham bezashga xizmat qilgan.

XVII asr oxirida Fransiyada pastki oq klaviaturalar qora daraxtdan qora rangda, yuqoridagilari oq rangda bo'lib, fil suyagidan ishlangan.

Bunday qilib yasalishining sababi u davrlarda klavishli cholg'u asboblarda ko'proq xotin-qizlar ijro etishgan bo'lib, qora klaviaturalar ustida oppoq qo'lli klavikord chalayotgan xotinlarning jozibali qo'l harakatlaridan zavqlanish uchun bo'lgan. Amma bunaqa qora klaviaturalar orasidagi oraliq chiziqlar qorishib ketib, ko'rinmas va



cholg'uchiga qiyinchilik tug'dirar edi. XVII asrga kelib klaviaturalar rangi hozirgi fortepianodagidek joylashtirila boshlagan.

Klavikord bilan bir vaqtda unga o'xshash yana bir klavishli cholg'u asbobi

taraqqiy eta boshlab, u har xil: klavitsimbal, chembalo, virdjinhel klavish kabi nomlar bilan atalar edi. Ohirgisi juda keng tarqalib, boshqa har xil ko'rinishdagi shunaqa cholg'u asboblarni bir umumiy nom bilan atalishiga olib keldi.

Klavikorddan farqli klavisinda torlar har xil uzunlikda bo'lgan va bu o'zgacha

shakl ko'rinishli royal cholg'u asbobi ko'rinishiga o'tdi. Klavisinda tovushlar urib emas, balki tirnab hosil qilinardi. Tovushni hosil qiladigan moslama qushlar qanoti patlaridan yasalgan. Klavisinchi ijro davomida tovushlarni qattiq yoki pastlata olmas edi. Klavesinda dinamik belgilar, ya'ni tovush kuchini ko'payturuvchi yoki kamaytiruvchi ham nisbatan murakkab ijrochi o'z xohishi bilan tovush sifatida ta'sir ko'rsata olmas edi. Takomillashgan klavesin odatda ikkita manuolga, ya'ni ikkita klaviatura va pedalga ega bo'lgan. O'zining chegaralangan imkoniyatlariga qaramasdan, klavesin yuqori registrda jarangli tembri, obertonlarga mos baslar kabi ajoyib sifatlarga ega bo'lgan. Klavesin san'ati XVI - asrda milliy maktablarning paydo bo'lishiga, keyingi avlod kompozitorlariga tayanch bo'lgan an'analarning yaratilishiga olib keldi. Fransuz klavesini maktabining asoschisi Shamboniyer nomi bilan mashhur bo'lgan Jak Shampinyon hisoblanadi. Uning ijodida klavesin yetakchi ahamiyatga ega bo'lib, bu san'at fransuz Klavesinchilari maktabning atoqli vakili Fransua Kuperen tomonidan klassik me'yorga yetkazildi.

Kuperen klavesin san'at maktabini rivojlantirgan uni cho'qqisi bo'lgan. Skarlatti,

Gendel va Bax uning o'quvchilari qatoriga kirgan. Klavishli cholg'u asbobi ustalari izlanishda bo'lishdi va 1711-yilda Italiyaning Radua shahrilik usta Kristofore Bartalameo yangi cholg'u asbobi kashf etdi.

Endicholg'uchi bu cholg'u asbobida qattiq va sekin chalish imkoniga ega bo'lgani uchun Forteplano deb nomlandi. Bu cholg'u asbobda eng muhim detall ovoz so'ndirgich bo'lmaganida torlar keragidan ortiq tebranib musiqa o'rnida faqat shovqin eshitilgan bo'lar edi. Forteplano cholg'u asbobida ikkita pedal o'rnatilgan bo'lib, biri tovushlarni to'htatish, ikkinchisi esa sadolantirishga xizmat qiladi.

1711-yilda pianino ixtiro qilinganda uning mablag'lari va shu sababli

jamoatchilik e'tiborini jalb qila olmadi. Klavesin o'sha davrning eng yaxshi vositasi edi. Keyingi paytgacha pianino haqida juda kam odam bilardi.

7 yillik urush Yoxann Zumpe ismli yigit Germaniyadan Londonga qochib ketganida. U yerda u Kristoforining pianinosini takomillashtirib, qora tugmachalarning alohida uchastkalarini, shuningdek, trebl va bas imkoniyatlarini taqdim etdi. Ushbu yangi pianinoda o'ynash juda qiyin edi. Va shu sababli juda kam odam asbobda qanday o'ynashni o'rgangan. Kristoforning ixtirosi tez orada jurnal maqolasi natijasida jamoatchilik e'tiborini tortdi. Scipione Maffei va 1711-yilda nashr Giornale de'letterati d'Italia Ventsiyaga Magelada Krisbofori ixtirosining asosi bo'lgan harakat dinamikasimavjud edi.

Ushbu maqola 1719-yilda Maffei asarining bir jildida, so'ngra nemis tilidagi tarjimasida (1725 y) qayta nashr etildi. Krisboforining asbobi dastlab asta-sekin tarqaldi, ehtimol klaviaturada qaraganda ancha murakkab va uni qurish qiyin bo'lganligi sababli u juda qimmat edi. Bir muncha vaqt forteplano royalli vositasi bo'lib, Portugaliya va Ispaniya



sudlarida Krisbofari tomonidan qurilgan yoki uslubda ijro etilgan asboblari ijro etilgan. Bir nechtasi egalik qilgan Ispaniya qirolichasi Mariya Barbara, kompozitorning shogirdi bo'lgan Domeniko Skarlatti. Pianino egasi bo'lgan birinchilardan biri bu Kastrato Farinelli o'limidan so'ng Mariya Barbaradan meros qolgan. Pianino uchun maxsus yozilgan birinchi musiqa shu davrga to'g'ri keladi.

1732-yil. 1760-yillarga qadar to'liq mashhurlikka erisha olmadi. 1730-yilda Germaniyada Silberman Frayberg Krisbofori loyihasi asosida pianinolar tayyorlashni boshlagan. Davrlar o'tishi bilan shaklan o'zgarishlarga uchrab takomillashib bordi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мартинов И. История западноевропейской музыки. Том 5. М. 1963.
2. Левик Б. Музыкальная литература зарубежных стран. Ч 5. М. 1975.